

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

KINOFIL'MLAR TARJIMASIDA MUQOBILSIZ LEKSIKANING PRAGMATIK VA LINGVOMADANIY O'ZIGA XOSLIKLAR

Hilola Qurbonboyeva Avazbek Qizi

I-bosqich magistranti,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada kinofil'mlar tarjimasida muqobilsiz leksikaning pragmatik va lingvomadaniy o'ziga xosliklarining lingvistik tahlili o'rganilgan. Kinofilmlar tarjimasi – bu nafaqat tilni o'zgartirish, balki madaniyat va kontekstni ham o'zgartirish jarayonidir. Bu jarayonda muqobilsiz leksika (ya'ni, bir tilning boshqa tilga to'g'ri kelmaydigan so'zlari yoki iboralari)ning ahamiyati katta. Ushbu maqolada kinofilm tarjimasida muqobilsiz leksikaning pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilamiz.

Kalit so'zlar: kinofil'mlar tarjimasi, muqobilsiz leksika, ijtimoiy normativlar, bevosita tarjima.

Kirish: Ikki tillar, ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi tafovutlarning mavjudligi ikki xalqning turli madaniyati, so'zlashuv uslubi va milliy qadriyatlarini tufayli yuzaga kelgan bo'lib, kinolarning tarjimalari kinolarni tomosha qilishdan ancha mashaqqatliroq ekanligini yaxshi bilamiz. Har bir til o'ziga xos madaniyatga ega. Ingliz tilidagi ba'zi so'zlar yoki iboralar O'zbek tilida to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentga ega bo'lmasligi mumkin. Masalan, "small talk" (kichik suhbat) iborasi O'zbek tilida aniq bir qarshi keluvchi atama topmasligi mumkin. Ushbu maqola orqali esa o'sha qiyinchiliklar nimadan iborat ekanligini o'rganib chiqamiz, shuning uchun ushbu muammolarga munosib yechim taklif qilamiz.

Asosiy qism: Muqobilsiz leksika – bu bir tilda mavjud bo'lgan, ammo boshqa tilda aniq muqobili yo'q bo'lgan so'zlar, iboralar yoki ifodalardir. Iboralar va frazeologiyalarni misol qilib oladigan bo'lsak: Ingliz tilidagi ba'zi murakkab ifodalarni O'zbek tiliga o'tkazishda qiyinchiliklar yuzaga keladi, chunki ularning bevosita ekvivalentlari yo'q bo'lishi mumkin. Misol uchun, "kick the bucket" (o'lmoq) iborasi O'zbek tilida bu kabi ifoda bilan ifodalansa ham, uning ma'nosi tushunilmasligi ehtimoli bor. Pragmatika – bu muloqotdagi ma'noni anglash va kontekstga bog'liq ravishda so'zlarning qanday ishlatilishini o'rganadigan lingvistik fan. Kinofilm tarjimasi jarayonida pragmatik jihatlar juda muhimdir:

Filmning syujeti, xarakterlari va ularning o'zaro munosabatlari kontekstni belgilaydi. Muqobilsiz leksikalarni tarjima qilishda kontekstni hisobga olish zarur. Ba'zi so'zlarning turli xil tarjimalari bo'lib, ular turli kontekstlarda turli ma'no ifodalab kelishi mumkin. Chunki so'z yakka holda kelganda o'zining lug'aviy ma'nosini bildirib kelsa, ibora, maqollar tarkibida kelganda u majoziy – ko'chma ma'noda kelishi mumkin, bunday hollarda aslo so'zma-so'z tarjima qilish usulidan foydalanmaslik tavsiya etiladi. Chunki o'zbek tilidagi iboralar, maqollar va kesatishlarning ingliz tilidagi ekvivalenti bo'lmasligi mumkin.

Misol tariqasida "qora" so'zini olaylik, bu so'z faqat rang ma'noda kelmaydi, u o'zidan oldin va keyin kelgan so'zlar bilan aloqasiga qarab "ichi qora" – ya'ni baxil inson, yoki "sovuq" so'zi havo dajasidan tashqari "niyati sovuq" iborasida ko'chma ma'noda kelishi kabi hollari

tarjimondan e`riborliroq bo`lishni va ayni holda tarjima qilinmaganda, tomoshabinga original manbadagi ma`no va ta`sirchanlikni yetkazib berishi kerak bo`ladi.

Har bir madaniyatning o`ziga xosligi bor; shuning uchun ba`zi iboralar faqat ma`lum madaniyatda tushunarli bo`lishi mumkin. Masalan, Amerikada mashhur bo`lgan "Thanksgiving" bayrami haqida tushuncha beruvchi ibora boshqa mamlakatlarda ma`no yo`qotishi mumkin. Chunki bu bayram bizning yurtda mavjud emas, bayram nomini so`zma so`z tarjima qilganda tushinarsiz bo`lib qolganligi bois, tarjimada bu bayram haqida qisqa tanishtiruv berib o`tish yoki o`zimizning tilda qisqa "Shukronalik kuni" deb aytib o`tish maqsadga muvofiqdir.

Muqobilsiz leksikalar ko`pincha kuchli emotsional yukga ega bo`ladi. Tarjimon ushbu emotsional ta`sirni saqlab qolish uchun alternativ uslublar qidirishi kerak. Ayniqsa, komediya janridagi kinolarni tarjima qilish nihoyatda mushkul va mas`uliyatli vazifadir, chunki bu kabi filmlar kulguli dialoglar, hazil va latifalarga boy bo`ladi. Hazillar gaplarning tarkibi, so`zlarning tuzilishi va har xil madaniy qadriyatlardan kelib chiqilgan holda tuzulgan bo`lishi mumkin, shuning uchun bir tildagi kulguli bo`lgan hazil ikkinchi tilda butunlay tushinarsiz bo`lib qolishi yoki kulguli bo`lmay qolishi mumkin. Ba`zi hollarda esa hattoki ikki xil dunyoqarash tufayli hazillar boshqa xalq vakillariga manzur kelmsligi ham mumkin. Hazil qilishda ijtimoiy normativlar ham muhim rol o`ynaydi. Ba`zi hazillar bir madaniyatda kulguli bo`lishi mumkin, ammo boshqa madaniyatda noqulay yoki haqoratli hisoblanishi mumkin. Bu kabi hollarda kinoning boshqa til vakillarida qanday taassurot qoldirishi tarjimonning qobiliyatiga bog`liq bo`ladi.

Lingvomadaniy aspektlar tillar orasidagi farqlarni va ularning madaniy kontekstini anglatadi va tarjimajonlar ularni bilishi manbaning tomoshabinga tushunarli holda yetib kelishida muhim ahamiyatga ega:

1. Madaniyatlararo tafovut: Har bir til madaniyati bilan bog`liq bo`lgan unikal tushunchalarni o`z ichiga oladi. Misol uchun, "sauna" atamasi Finlyandiya madaniyatida muhim ahamiyatga ega, ammo boshqa tillarda aniq ekvivalentga ega emas.

2. Tarjima strategiyalari: Muqobilsiz leksikalarni tarjima qilish uchun turli strategiyalar qo`llanilishi mumkin: paraphrasing (so`zma-so`z emas), lokallash (mahalliyashtirish) yoki transkreatsiya (ijodiy qayta yaratilish)

3. O`zaro ta`sir: Tarjima jarayoni davomida tillar o`rtasidagi aloqalar yangi iboralar yoki tushunchalarning paydo bo`lishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa qismi: Kinofilmlar tarjimasidagi muqobilsiz leksikaning pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlari ularni samarali tarzda tarjima qilishda katta rol o`ynaydi. Tarjimon nafaqat so`zlarni almashtirish bilan cheklanmasligi, balki madaniyatlararo aloqalarni inobatga olishi kerakligini unutmasligi lozim. Bu jarayon murakkab va ko`p jihatli bo`lib, filmning asl mohiyatini saqlab qolish uchun ijodkorlik talab qiladi.

Ushbu maqola yordamida kinofilmlar tarjimasining qiyinchiliklarini yanada chuqurroq anglash imkoniyatini yaratish umididamiz, shuningdek, kelgusidagi tadqiqotlarda yangi yondashuvlarni taklif etishni maqsad qilamiz.

Adabiyotlar ruyhati

1. Саломов Ф. Таржима ташвишлари. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б.149–150.
2. Мусаев Қ. Бадиий таржима ва нутқ маданияти. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1976. – Б.159.
3. Ҳамидов Х. Ўзбек ва турк тиллари орасида бадиий таржимада “сохта эквивалентлар” муаммоси, // Ёш таржимонлар альманахи. – Самарқанд: СамДЧИ нашри, 2012. – Б.154-158.
4. Очилов Э. Таржима назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2012.– Б.124.
5. Досбаева Н.Т. Ўзбек насрий адабиётидан инглиз тилига таржималарнинг лингвокультурологик таҳлили. Филол. фан. д-ри. дисс. автореф. – Тошкент: 2021. – Б.74.
6. Артикова М. Медиаматнда прецедент феноменининг лингвомаданий аспекти (ўзбек ва испан газеталари мисолида). фил.фан.фалс.док. (PhD) дис. – Тошкент: 2022. – Б.21.
7. Abdullayeva, M. R. (2022). Convey the national spirit in translations. In International Scientific and Practical Conference "Modern Psychology and Pedagogy: problems and solutions", ANGILYA.
8. Абдуллаева, М. Р. (2019). Инглиз тилидан Ўзбек тилига илк бевосита таржималарда мазмун ва шакл мутаносиблиги. *Termiz Davlat Universiteti. "Adabiy aloqalar va madaniyatlarining uzaro tasiri."* *Xalqaro ilmiy konferensiya*, 237-239.